ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

1-OKTABR – “O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI”

27-OKTABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI

2024.9

www.ilmsarchashmalari.uz

Saidjonova Parvina Shuxratovna	Dual ta’lim tizimining talabalarni tayyorlash sifatiga ta’siri	**104**
Ne’matov Mashxurbek Inomjon o‘g‘li	Tarixiy-etnografik materiallar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish	**108**
Sapayev Umidbek Abdullayevich	Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy omillari	**112**
Xolboeva Gulxayo Xolboevna	Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy madaniyat mutaxassislari kasbiy salohiyatini ko‘p bosqichli profillash modeli asosida oshirish	**114**
Ismoilov Dilmurod Xamidjonovich	Bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining voleybol vositasi yordamida kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish	**118**
Mamatova Dilnoza Bekpo‘latovna	Chet tillarini o‘rganishda sun’iy intellektning o‘rni	**123**
Tilegenov Askarboy Tulegenovich	Zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida yoshlarda milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari	**126**
Ягьяева Эльвина Бахтияровна	Методические рекомендации по организации самостоятельной работы студентов в процессе обучения английскому языку на основе индивидуально-дифференцированного метода	**130**
Абдуллаева Наргиза Абдуллаевна	Информационно-коммуникативные технологии в совершенствовании познавательно-профессиональных компетенций будущих педгогов начального образования	**133**
Kasimova Malika, Suleymanova Kamola	Exploring the Efficacy of AI Chatgpt in Enhancing Speaking Skill at Lyceums	**135**
Juraeva Mokhira	Development of EFL Students’ Speaking Skills in Student-Centered Atmosphere	**142**
Azamatova Gulrukh Islom qizi	Karl Popper's Concept of Education in the Context of the Development of New Uzbekistan: Ethical-Philosophical Analysis	**144**
Zarlikov Ikram Batirbaevich	Pragmatic Features of Using Media Technologies	**148**
ILMIY AXBOROT		
Matlatipov San’atbek G‘ayratovich	O‘zbek tili matnlarini sentiment tasniflashning tayanch vektorlar modeli	**152**
Begniyazova Qumar Allambergenovna	Jurnalistikada elektron gipermatn tushunchasi va uning klassifikatsiyasi	**158**
Sattorova Maftuna Shavkatovna	Badiiy matnda lingvokulturemalarning o‘rni va vazifalari	**164**
Sattorova Shahlo Shavkat qizi	Ingliz va o‘zbek tillarida modallik kategoriyasining umumiy tahlili	**168**
Rahmonova Surayyo Ne’matovna	O‘zbek tilining izohli lug‘atida meronim (partonim)ning genetik-etimologik tasnifi	**171**
Xamroyeva Shaxzoda Ikromovna	Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muallif mushohadasining mohiyati	**173**
Mamarasulov Umidjon G‘ulomjonovich	E.M.Remark romanlarida so‘z takrori bilan bog‘liq badiiy tasvir vositalari va ularning o‘zbek va rus tillaridagi tarjimada ifodalanishi	**177**
Худжаева Раънохон Муталибжоновна	Научные основы разработки текстологического словаря английских омонимов. Толкование и перевод на узбекский язык	**181**
Искандарова Нодира Бахрамбековна	Историко-культурные предпосылки проникновения ориентальных образов в немецкую литературу XIX–XX веков	**183**
Исаева Гулнора Абдукадировна	Жизнь и смерть как константы войны в романах «Горячий снег» и «Годы в шинелях»	**187**
Khujaeva Sayyora Sotimboyevna	Analysis of Gender-Specific Nouns in English	**190**
Isakova Zilolaxon Zakirovnaб Shamsiddinova Gulroxon Zuhriddin qizi	Ingliz tilidagi ayrim gul nomlarining etimologik, semantik-struktur tahlili	**194**

(4). N.Z.Normurodova. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Disser., 47-bet.
(5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80.000ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi, 2-nashr, 635-bet.
(6). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80.000ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi, 2-nashr, 658-bet.
(7). Н.З.Нормуродова. Вербальная экспликация антропоцентризма В англоязычном художественном дискурсе, 46-bet.
(8). Виноградов В.В. Наука о языке художественной литературы. Исследования по литературоведению и стилистике. 1960, с. 5–45.
(9). Литературный энциклопедический словар. В.М.Кожевникова, П.А.Николаева. “Советская энциклопедия”, 1987.
(10). Энциклопедический словарь юного литературоведа. И.И.Новикова, Е.А.Шисковский. Педагогика “Пресс”, 1998.
(11). Гончарова Е.А. Пути лингвостилистического выражения категории автора в художественном тексте. Изд. Томск унив-та, 1984, 150 с.
(12). Васильева А.Н. Художественной речь: курс по стилистике для филологов. “Наука”,1983, 256 с.

Mamarasulov Umidjon G‘ulomjonovich (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi bosh mutaxassisi; u.mamarasulov@gmail.com)

E.M.REMARK ROMANLARIDA SO‘Z TAKRORI BILAN BOG‘LIQ BADIIY TASVIR VOSITALARI VA ULARNING O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI TARJIMADA IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muallif E.M.Remark romanlarining rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarida so‘z takrori bilan bog‘liq badiiy tasvir vositalarinining aks etishini misollarda ko‘rib chiqadi. Tadqiqotchi anafora, epifora, simplok, epiflok, anadiploza va kiklos badiiy tasvir vositalarining nazariy asoslari bo‘yicha yurtimiz va jahon tilshunos va tarjimashunos olimlarining ilmiy qarashlarini o‘rganib, mazkur tushunchalar bo‘yicha o‘zining xulosalarini keltirib o‘tadi. Keltirilgan nazariy ma’lumotlarni E. M.Remark romanlarining rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalaridan olingan misollar bilan asoslaydi. Asl matn va tarjima qilingan tillar matnidagi misollarni morfologik jihatdan tahlil qiladi. Ba’zi o‘rinlarda asl matnda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarining o‘zbek tilidagi talqinlari maqola muallifi tomonidan taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tasvir vositasi, takror, takrir, anafora, epifora, anadiplozis, badiiy tarjima, umumiy va xususiy ma’no.*

Умиджон Гуломжонович Мамарасулов (главный эксперт Агентства оценивании знаний и компетенций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций; u.mamarasulov@gmail.com)

СРЕДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ, СВЯЗАННЫЕ С ПОВТОРОМ СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Э.М.РЕМАРКА, И ИХ ПЕРЕДАЧА В ПЕРЕВОДАХ НА РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Автор данной статьи рассматривает использование средств художественной выразительности, связанных с повтором слов в произведениях Э.М.Ремарка, и передачу этих средств в переводах данных произведений на русском и узбекском языках. Исследователь изучает научные точки зрения отечественных и зарубежных учёных о теоретических основах таких художественных выразительных средств, как анафора, эпифора, симплок, эпифлок, анадиплоз, и киклос, и приводит свои выводы. А также обосновывает теоретические знания примерами из произведений Э.М.Ремарка. Автор статьи проводит морфологический анализ приведённых примеров. В некоторых случаях даёт свои варианты перевода на узбекский язык.*

Ключевые слова: *средства художественной выразительности, повторение, такрир, анафора, эпифора, анадиплозис, художественный перевод, общий и собственный смысл.*

Umidjon G‘ulomjonovich. Mamarasulov (chief expert of Agency for assessment of knowledge and competences under ministry of higher education, science and innovation; u.mamarasulov@gmail.com)

MEANS OF ARTISTIC EXPRESSION ASSOCIATED WITH THE REPETITION OF WORDS IN THE NOVELS OF ERICH MARIA REMARQUE, AND THE TRANSFER OF THESE MEANS IN TRANSLATIONS OF THESE NOVELS IN RUSSIAN AND UZBEK

Annotation. *The author of this article examines the use of means of artistic expression associated with the repetition of words in the novels of Erich Maria Remarque, and the transfer of these means in translations of these novels in Russian and Uzbek. The researcher studies the scientific points of view of*

local and foreign scientists on the theoretical foundations of such means of artistic expression as anaphora, epiphora,symplos,anadiplosis,cyclos and presents his conclusions. He also substantiates theoretic knowledge with examples from Remarque's novels. The author of the article conducts a morphological analysis of the examples given. In some cases, it gives its own translation options into Uzbek.

Keywords: *means of artistic expression, repetition,anaphora, epiphora, anadiplosis, artistic translation, sense of the word.*

Kirish. Badiiy tasvir va ifoda vositalari tushunchasi badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalarining umumiy nomi [8; 49-b.] hisoblanadi. Ular orasida so'z takrori bilan bog'liq bir qator badiiy tasvir va ifoda vositalari mavjud bo'lib, ular, asosan, matndagi nutqning ekspressiv bo'yoqdorligini, asar qahramonining ichki ruhiy holati, uning asar voqealarida ifodalanayotgan g'oyaga nisbatan munosabatini ifodalash orqali o'quvchiga ma'lum bo'lmagan qirralarini yoritish uchun xizmat qiladi. Mazkur maqolada nemis tilida ifodalangan shu turkumdagi badiiy tasvir va ifoda vositalari xususida fikr yuritilib, ularning rus va o'zbek tillarida ifodalanishi tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur maqolani yozish asnosida yurtimiz va dunyo ilm-fan arboblarining mavzuga doir bir qator adabiyotlari ko'rib chiqildi va zarur hollarda ulardan iqtiboslar keltirildi. G'.Salomov, D.Quronov, A.Hojiahmedov, N.Naer, G.Pan, M.G.Sushko-Bezdenejnih kabi olimlarning ilmiy asarlari, Z.Jumaniyozov, Z.Sodiqov, S.Nazarov, Y.Egamova kabi filologlarning dissertatsiyalari shular jumlasidandir. Badiiy tasvir va ifoda vositalarining shakliy tarkibidagi so'zlarni tahlil qilishda esa nemis tilidagi bir tilli izohli lug'at hamda o'zbek tilining izohli lug'atidan foydalanildi. Taniqli tilshunos Naer o'zining "Nemis tili stilistikasi" nomli kitobida takrorning turlariga to'xtalar ekan, uning so'zma-so'z takror hamda stilistik takror kabi turlarini keltirib o'tadi [5;179-b.]. G.V.Pan esa so'z takrori bilan bog'liq ifoda vositalari qatoriga anafora, epifora, simplok, kiklos va anadiplozis kabilarni kiritgan [7;241–242-b.]. Sushko-Bezdenejnix so'z takrorining sintaktik darajadagi turlaridan anafora, epifora va sintaktik parallelizmni sanab o'tgan [4;71-b.]. Keltirib o'tilgan turlarning bir-biridan farqlanishida takrorlanib kelayotgan so'zning gapdagi o'rni asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nazariy, tahliliy-sintetik, qiyoslash-taqqoslash, analogiya metodlaridan foydalanildi. Bunda asl matnda ifodalangan so'z takrori bilan bog'liq badiiy tasvir va ifoda vositalari aniqlanib, ularning rus va o'zbek tillaridagi tarjimasida qanday ifodalanganligi qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. So'z takrori bilan bog'liq badiiy tasvir vositalarining ifoda xususiyatlaridan taniqli nemis yozuvchisi Erix Maria Remark o'z romanlarida keng foydalangan. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining o'ziga xos qurboniga aylangan adibning hayot kechinmalari bir qator romanlarida aks etgan. Uning bevosita urush voqealarida ishtiroki paytidagi, tinchlik va osuda hayotning bebaho ekanligini o'quvchiga uqtirish g'oyalari bilan yo'g'rilgan romanlari tufayli ta'qib qilinib, quvg'inda yurgan davrlaridagi ruhiy kechinmalari asar qahramonlari nutqi vositasida millionlab o'quvchilarning qalbiga kirib borgan. Ana shu kechinmalarning ekspressiv bo'yoqdorligi yozuvchi romanlarida qo'llangan bir qator badiiy tasvir vositalari, jumladan so'z takrorlari yordamida maromiga yetkazilgan. "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" (Im Westen nichts neues) romani qahramoni Paul Boymer tilidan aytilgan ushbu jumlalarga to'xtalsak:

Ach Mutter, Mutter! *Für dich bin ich ein Kind, warum kann ich nicht den Kopf in deinen Schoß legen und weinen? […].*

Ach Mutter, Mutter! *Warum nehme ich dich nicht in meine Arme und wir sterben […].*

Ach Mutter, Mutter! *Laß uns aufstehen und fortgehen, zurück durch die Jahre, bis all dies Elend nicht mehr auf uns liegt, zurück zu dir und mir allein,* ***Mutter!*** *[…].*

Ach Mutter, Mutter, *wie kann man es begreifen, dass ich weg muss von dir, wer hat denn anders ein Recht auf mich als du?[11;185-b.].*

Ах мама, мама! *Для тебя я ребенок – почему я не могу положить голову тебе на колени и поплакать?*

Ах, мама, мама! *Почему я не обниму тебя и не умру вместе с тобой.*

Ах, мама, мама! *Давай встанем и уйдем, назад сквозь годы, пока вся эта беда не свалится с наших плеч, назад, только к тебе и ко мне,* ***мама!***

Ах, мама, мама, *уму непостижимо, что я должен уйти от тебя, ведь кто ещё имеет право на меня, как не ты? [10;174–176-b.].*

Eh, oyi, oyi! *Siz uchun haliyam go'dakman, – nima uchun tizzangizga bosh qo'yib yig'layolmayman?*

Eh, oyi, oyi! *Nima uchun bag'ringizga qaytadan singib, siz bilan birga jon berolmayman,* ***oyijon****?*

Eh, oyi, oyi! *Keling, o‘rnimizdan turaylik-da, o‘tmishimizga qaytaylik, to boshimizdan kulfat arimaguncha ketaveraylik, ketaveraylik…*

Eh, oyi, oyi, oyi! *sizni tashlab ketayotganim insofdanmi – menda sizdan boshqa kimning haq-huquqi bor? [9;161–162-b.].*

Nemis tilidagi misoldan ko‘rinib turibdiki, ***Mutter*** *– Ona [1 303-b.]* so‘zi jumla boshida ketma-ket takrorlangan. Takrorning bunday turi nemis tilidagi manbalarda „Geminatio“ deb yuritiladi. O‘zbek tilidagi manbalarda esa D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralievalar [8;306-b.] hamda A.Hojiahmedovlar [2;100-b.] tomonidan “takrir” badiiy tasvir vositasi sifatida e’tirof etilgan. Bundan tashqari, bir so‘zning bir jumla ichida takrorlanishi yuqorida ismlari zikr etilgan o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan bir qancha badiiy tasvir vositalarining ko‘rinishi sifatida ham ta’kidlangan bo‘lib, ular orasida tarji’, tavtologiya kabilarni sanab o‘tish mumkin. Mazkur misolda takror bilan bog‘liq badiiy tasvir vositalariga kiruvchi anafora ham namoyon bo‘lib, u nemis tilidagi manbalarda bir xil so‘z yoki so‘z birikmasining ketma-ket kelgan gaplar boshlanishidagi takrorlanishi sifatida izohlanadi [5;182-b.].

Endi *Mutter* so‘zining bevosita tahliliga kelsak, ot so‘z turkumiga mansub bu so‘zga rus tilidagi tarjimada qo‘llanilgan *Мама* so‘zi to‘liq ekvivalent hisoblanadi. Fikrimizni asoslash uchun ikkala so‘zning paradigmatik munosabatga kirishuvchi sinonimik guruhlari va u guruhga kiruvchi so‘zlarning umumiy va xususiy ma’nolarini tahlil qilib chiqsak. *Mama, Muttchen, Mutti* so‘zlari *Mutter* so‘zining paradigmatik guruhiga kirib, qo‘llanilish doirasida bir-biridan farq qiladi[3;201-b.]. *Mutter* so‘zi umumiy ma’noda barcha onalar uchun ham, xususiy ma’noda bir shaxsning o‘z onasiga murojaat vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. *Mutti* so‘zi esa faqat bir shaxsning o‘z onasiga bo‘lgan murojaati vositasi sifatida qo‘llaniladi. Asar qahramonining o‘z onasiga nisbatan *Mutter* so‘zi bilan murojaat qilishida farzandlarini urushga yuborishga rozi bo‘lishdek baxtsizlikka yo‘liqqan barcha onalarga murojaati ham ifodalangan. Matnning o‘zbek tilidagi tarjimasida qo‘llanilgan “*oyi*” so‘zi ona so‘zining shevadagi, so‘zlashuv tilidagi shakli tar-zida berilgan [6;99-b.]. Oyi so‘zi og‘zaki nutqda bir shaxsning o‘z onasiga murojaatini ifodalash uchun qo‘llaniladi, bu so‘zning “barcha onalar” ma’nosini ifodalovchi shakli yo‘q. Shu jihatdan tarjima matnida “oyi” so‘zining qo‘llanilishi asl matndagi barcha onalar xususida anglanilishi mumkin bo‘lgan fikrning bir-gina qahramonning onasi bilan chegaralanib qolishiga olib kelgan degan fikrdamiz. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, tarjimon tomonidan ushbu jumlada *ona* so‘zi qo‘llanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. So‘z takrori bilan bog‘liq bo‘lgan keyingi misolga e’tibor qaratsak:

Ich bin ***müde****, dachte er.* ***Müde*** *des Bleibens und* ***müde*** *des Abschieds. Oder bin ich nur* ***müde*** *des Entscheidens?*

Я просто ***устал****, – думал он. –* ***Устал*** *то ли оставаться неведомо зачем, то ли расставаться. Или просто* ***устал*** *решать – и не решаться.*

Yuqoridagi misolda ***müde*** sifati ketma-ket kelgan gaplar tarkibida takrorlanib, nemis tilidagi epanaleps badiiy tasvir vositasi sifatida namoyon bo‘lgan. ***Müde*** sifati sein fe’lining birinchi shaxsda tuslangan shakli „bin“ fe’l shakli bilan birgalikda gapning bosh bo‘laklaridan biri – kesim sintaktik vazifasini bajarib kelgan. Ikkinchi gap esa birinchi gapning mantiqiy davomi hisoblanadi. Ikkinchi gapning egasi va kesimning bir qismi bo‘lmish sein fe’lining birinchi shaxsda tuslangan „bin“ fe’l shakli tushirib qoldirilgan, shunga qaramasdan qaratqich va qaralmishdan iborat bo‘lgan ot-kesim yaxlit ma’no anglata olgan. Zidlovchi bog‘lovchi bilan boshlangan uchinchi gap esa so‘roq gap bo‘lib, uning tarkibida ikkinchi gapda tushirib qoldirilgan ega va kesimning bir qismi bo‘lmish sein fe’lining birinchi shaxsda tuslangan „bin“ fe’l shakli hamda qaratqich va qaralmishdan iborat kesim qismi bo‘lib ***müde*** sifati takroran qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, yuqoridagi misolda ellipsis badiiy tasvir vositasi ham qo‘llanilgan bo‘lib, nemis tilidagi manbalarda bu badiiy tasvir vositasiga “...Gap tarkibidagi so‘zlarning ma’noga ta’sir etmagan holda tushirib qoldirilishi” [7;274-b.], deya ta’rif berilgan.

Rus tilidagi tarjima matnida ***ustal*** so‘zi takrorlangan bo‘lib, mazkur so‘z fe’l so‘z turkumiga mansub ***устать*** so‘zining birinchi shaxs birlik shakli bilan ifodalangan kesim vazifasini bajaradi. Ma’no anglatishiga ko‘ra fe’l o‘tgan zamon, tugallangan ko‘rinish (совершенный вид)da ifodalangan.

Erix Maria Remarkning “Qarzga olingan umr (Der Himmel kennt keine Günstlinge)” romanini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan tarjimon Dilfuza Sobirova asarni kitob shaklidagi matndan emas 1998 yilda “Kristall” jurnalida e’lon qilingan shaklidan tarjima qilganligi sababli, misol tariqasida ko‘rsatilgan matn o‘zbek tilidagi tarjima matnida mavjud emas.

So‘z takrori bilan bog‘liq quyidagi misolga e’tibor qaratsak:

***Während sie** noch schrieben und redeten, sahen **wir** Lazarette und Sterbende; – **während sie** den Dienst am Staate als das Größte bezeichneten, wußten **wir** bereits, daß die Todesangst stärker ist[11;18-b.].*

***Они** ещё писали и произносили речи, **а мы** видели лазареты и умирающих; **они** называли служение государству самым главным, **а мы** уже знали, что смертельный страх сильнее [10;16-b.].*

***Ular hamon** maqolalar yozishar, nutqlar so‘zlashardi, **biz esa** ko‘chma shifoxona-yu jon taslim qilayotganlarni ko‘rib ulgurgandik; **ular hamon** Vatanga xizmat qilishdan oliy ne’mat yo‘q, deya ayyuhannos solishardi, **biz esa** o‘lim dahshati undan-da kuchliroq ekanini bilardik [9;16-b.].*

Nemis tilidagi qaratqich (Genitiv) kelishigining predlogi **während** paytida degan ma’noni anglatadi. Mazkur predlog hamda birinchi va uchinchi shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshining takrorlanishidan foydalangan adib anafora badiiy tasvir vositasidan foydalangan. Anafora badiiy tasvir vositasi so‘z yoki so‘zlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi, so‘z takrorining xususiy ko‘rinishi [8;296-b.] sifatida ta’riflanadi. Takrorlanayotgan so‘zlar gapdagi vazifasiga ko‘ra payt holi va ega hisoblanadi.

Matnning rus tilidagi tarjimasida “paytida” ma’nosini beruvchi so‘z tushib qolgan bo‘lsa ham, birinchi va uchinchi shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshlarining takrorlanishi yordamida asl matnda qo‘llanilgan anafora badiiy tasvir vositasining qayta yaratilganini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek tiliga qilingan tarjima matnida birinchi va uchinchi shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshlari va **“hamon”** payt ravishining takrorlanishi yordamida anafora badiiy tasvir vositasi yaratilgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, badiiy matn tarkibidagi so‘z takrori bilan bog‘liq badiiy tasvir vositalarini boshqa tilga tarjima qilganda qayta yaratish imkoniyati mavjud. Mazkur badiiy tasvir vositasi qayta yaratilganda, matn mazmunida undan ko‘zlangan maqsad to‘la ta’minlanadi. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘z takrori bilan bog‘liq badiiy tasvir va ifoda vositalarini tarjima qilishda quyidagilarga e’tibor berishni taklif qilamiz:

1. Asl matndagi badiiy tasvir va ifoda vositalarining tarjima tilidagi ekvivalenti asl matnda ko‘zlangan maqsadni bera oladimi yoki yo‘qmi.
2. Asl matnda berilgan badiiy tasvir va ifoda vositasi tarjima tilida qayta yaratilganda madaniy o‘ziga xoslikni hisobga olish zarurati yuzaga chiqqanmi.
3. Ifodalilikni ta’minlash maqsadida asl matnga sodiqlikning buzilishidan chekinish bilan bir qatorda, kinoya, so‘z o‘yinlarini tarjima tilida tushunarli ifodalanishini ta’minlashga erishilmoqdami.

So‘z takrori bilan bog‘liq badiiy tasvir vositalarining qamrovi kengligini hisobga olgan holda, ularning badiiy matn va uning tarjimasidagi tutgan o‘rni masalasida chuqurroq izlanishlar olib borilishi zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Dieter Götz. Taschenwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG Berlin und München, 2007, 635 s.

(2). Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. T., “Sharq”, 1998, 160 bet.

(3). Ilka Pescheck. Das Wörterbuch der Synonyme. Berlin, Dudenverlag, 2016, 352 s.

(4). М. Г Сушко- Безденежных. Стилистика немецкого языка. Sumi, SumDPU, 2011, 120 с.

(5). Naer Nina Mixaylovna. Stilistik der deutschen Sprache. Учебное пособие, Moskva, MPGU, 2015, 256 с.

(6). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T., “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 680 bet.

(7). Pan G.W. Deutsche Stilistik. T., 2010, 280 s.

(8). Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralieva. Toshkent, Akademnashr, 2013, 408 bet.

(9). Remark E.M. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. Ruschadan Nizom Komil tarjimasi. T., “Yangi asr avlodi”, 2023, 240 bet.

(10). Ремарк Э.М. На западном фронте без перемен. Перевод Н.Фёдорова. Москва, AST, 2022, с. 285.

(11). Remarque E.M. Im Westen nichts neues. Berlin. Im Propyläen-Verlag 1929, 289 s.

Maqolaning nashr etilishi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot

Mazkur ilmiy jurnal **O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan** nashrlar qatoriga kiritilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasining **dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI** tarkibida mavjud bo‘lib, ushbu Ro‘yxatning **82–89-sahifalarida**
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI ixtisosligi rukni ostida qayd etilgan.

Izoh: Ushbu ma’lumot Jurnalning O‘zR OAK tomonidan rasman tan olinganligini tasdiqlaydi.